



## SULTON JO‘RA HAYOTI VA IJOD YO‘LI

***Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna***

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

***Abdulxamidova Nasima Yorqinjon qizi***

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada Sulton Jo‘ra hayoti, ijodi va she’rlarida ilgari surilgan g‘oyalar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** XX asr boshlarida bolalar adabiyoti, lirik she’rlar, yirik dostonlar, ta’lim-tarbiyaga oid asarlar, pedagogik va badiiy mahorat.

**Kirish.** Ma’lumki, bolalar adabiyotining rivojlanishida XX asr shoir, yozuvchilarining hissasi katta hisoblanadi. Bu davrda ijod qilgan G‘afur G‘ulom, Oybek, Uyg‘un, Hamid Olimjon, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Sulton Jo‘ra, Adham Rahmat singari adiblarni aytib o‘tmaslikning iloji yo‘q. Ular o‘z asarlari, katta-kichik she’rlari-yu, yirik dostonlari bilan barchaning ko‘nglidan joy ola bilishgan.

**Natijalar.** Bolalar uchun yozgan asarlarida baxtli bolalik, Vatanga muhabbat va dushmanga nafrat, mehnat ahllariga e’tiqod tuyg‘ularini tarannum etgan Sulton Jo‘ra ham bu davrning yirik namoyondalaridan biri hisoblanadi. U 1910-yil 15- yanvarda Buxoro viloyati Shofirkon tumani Qag‘altom qishlog‘ida kambag‘al dehqon oilasida dunyoga kelgan. 7 yoshida ham otasidan, ham onasidan yetim qolgan Sulton har kimning uyida xizmat qildi, 1924-yilda Buxoroga keldi va bu yerda pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kirdi, uni 1930-yilda bitirdi. Sulton Jo‘ra 1931-1938-yillarda Buxoro pedagogika institutining ishchi fakultetida o‘qiydi. 1938-1941-yillarda Andijondagi o‘qituvchilar instituti va pedagogika bilim yurtida til va adabiyotdan dars berdi.<sup>1</sup>

Adib 1942-yilda harbiy xizmatga yuboriladi. U dushman bilan mardonavor kurashdi va 1943-yil 14-noyabrda nemislarga qarshi bo‘lgan jangda qahramonlarcha halok bo‘ldi.

Uning dastlabki she’rlari 1933-yilda yosh shoirlarning she’rlari jamlangan “She’rlar” to‘plamida nashr etilgan. Uning 1939-yilda “Fidokor”, 1941-yilda “Moskva” she’riy to‘plamlari, 1942-yilda “Iroda” nomli pyesasi, vafotidan so‘ng 1951-yilda rus va o‘zbek tillarida “Tanlangan asarlar”i, tinch qurilish yillari davrida “Havorang gilam”, “Zangori gilam”, “Bruno”, “Parvoz”, “Qaldirg‘och”, “Tanlangan asarlar” kitoblari bosilib chiqdi.

Sulton Jo‘ra nafaqat kattalar uchun balki bolalar uchun ham ajoyib asarlar yaratdi. Rostgo‘y va intizomli bo‘lish, pokiza, ozoda kiyinish, savodxon bo‘lish, chirolyi yozuv malakasini egallash, Vatanga muhabbat singari ta’lim-tarbiyaviy masalalarni o‘zining she’rlarida aks ettirgan. Bunday g‘oyalar shoirning “Yozgi yomg‘irdan so‘ng”(1936), “Oy nechta?”, “Lola”, “Tinish belgilaringin majlisi”, “Sirkda”, “Cho‘ntak”(1940), “Dengiz tagida”(1941) kabi asarlarida o‘z tasdig‘ini topgan.

Shoir tabiat, undagi har bir narsalar, o‘zgarishlarni go‘zal ifodalar yordamida she’rlariga olib

<sup>1</sup>Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent:Ozbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B. 143.



kira olgan. Shunday she'rlaridan biri "Yozgi yomg'irdan so'ng"dir:

Quyosh balqib nur sepdi yana,  
 Ko'kda nafis rango-rang kamon.  
 Yilt-yilt yonar barglar ustida,  
 Qolgan kumush tomchi durdona.

Shuningdek, kichkintoy bolajonlar ilmiy-ommabop mavzudagi asarlarni ham yoqtiradilar. Sho'ir bunday mavzularda ham qalam tebratgan. Uning shunday asarlaridan biri "Oy nechta?" she'ridir. Bunda Sulton Jo'ra bolalarning istaklarini ona va farzandlarining dialogi orqali aks ettirgan:

Ona dedi:  
 –Yoting endi,  
 Faqat bitta osmonning oyi!  
 Katta bo'lgach, aylanaylarim,  
 Oyning o'zin minib ko'rarsiz,  
 –O'shanda-chi, oyijon, bizga  
 Katta shoti olib berarsiz.

Sulton Jo'ra ijodida uning "Tinish belgilari majlisi" she'ri katta o'rin tutadi. Nomiga mos ravishda she'lda tinish belgilari haqida gap boradi. Bu esa o'zbek tilining eng muhim qoidalaridan biri hisoblanadi. Asarda tinish belgilari vazifalari jonlantirish tasvir vositasi yordamida bolalarga tushuntirib beriladi. Har bir tinish belgilari gapirgan holda harakatlantirilib, o'z joyiga qo'yiladi. Bu esa kitobxonning aniq tasavvur hosil qilishiga sabab bo'ladi:

–O'rtoq rais, endi menga navbat bering, –  
 Deb so'z oldi kichik to'qmoq-bizning vergul.  
 O'rnim tengdosh bo'laklarning orasida,  
 Fikrlarning "razyezdi" men: menda birpas  
 Olib o'tar har o'quvchi yarim nafas.  
 Undalma so'z kelib qolsa gap boshida  
 Undan keyin men turaman yonboshida.

Yozuvchi bu she'rda nafaqat jonlantirish, balki o'xshatish badiiy san'atidan ham foydalangan. Undov belgisini mirzaterakka, nuqtani koptokka, so'roq belgisini o'roqqa, undov belgisini mixga, vergulni kichik to'qmoqqa, qo'shtirnoqlarni sirkdag'i qiziqchilarga, tireni gugurtga badiiy mahorat bilan o'xshatgan. Bunday o'xshatishlar o'quvchilarga tinish belgilari qoidasini oson o'zlashtirishga yordam beradi:

Sirkdag'i qiziqchidek qo'shtirnoqlar  
 Bir mahalda kulib chiqdi xushdimog'lar,  
 –Korxonalar, xo'jaliklar, gazeta, jurnal—  
 Hokazoga ot qo'yilgan bo'lsa darhol,  
 Uni qurshab oladirmiz ikki yondan . . .  
 Ko'chirma gap ketolmaydi bizdan qochib,  
 Uni doim olamiz keng quchoq ochib.<sup>2</sup>

Yuqoridagi misralardan ham ko'rini turibdiki, tinish belgilari xususiyatlarini yoritish bilan bir qatorda ularga oid misollar ham berib o'tilgan. Bu esa sho'irning ham pedagogik, ham badiiy mahoratini ifoda etadi.

<sup>2</sup> <https://n.ziyouz.com>

Sulton Jo'ra «Sog'inchli salom» she'rida Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat hislarini va g'alabaning muqarrarligini tasvirlaydi. Shoир nemis bosqinchilarining yovuzliklari va vahshiyliklarini, insoniyat boshiga solgan azob-uqubatlarini, jabr-zulmini «guli g'unchalari», «oltin yulduzchaları», «girgitton qizchaları»ga sog'inchli salom yozar ekan, ularga fashistlar vayron qilgan joylardagi xalqning og'ir ahvoli, yosh bolalarning ayanchli taqdiri haqida hikoya qilib beradi. Shoир urush va uning dahshatlarini, xalqning azob-uqubatlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, boshidan kechirgan bir kampir tilidan so'zlab voqeanean ta'sirchanligini, bolalar ongiga tez, oson yetib borishini ta'minlaydi. Kampirning qalbi dardga to'la. G'am, alam, qasd uning butun vujudini egallab olgan. Uning so'zlaridan fashistlar tomonidan otib o'Idirilgan qizi va nevarasining fojiasigina emas, umuman dushmanning yovuzligi, rahm-shafqatsizligi ro'yrost ochib berilgan<sup>3</sup>:

Ko'zim ochsam ne ko 'ray;  
 –Voy «Qo'rquinchli manzara»  
 Ko'kragidan qon oqib,  
 Yerda yotar Varvara . . .  
 Fashist jallod nayzasin  
 Sanchibdi ko'kragidan,  
 Bolaning hali Yoshi  
 Ketmagan kiprigidan,  
 Bir tomonda onasi,  
 Bir tomonda bolasi,  
 Qon ichida yotibdi.  
 E –voh, har ikkalasi!..

Shoirning bu she'ri bolalarni Vatanga, ota-onaga muhabbatli, uni seuvuchi, dushmanga esa nafrat tuy'ulari bilan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

**XULOSA.** Sulton Jo'raning har bir asari, har bir she'ri kitobxonlarni, o'quvchilarni yaxshilik qilishga, ro'stgo'y bo'lishga, a'lo va yaxshi o'qishga chorlaydi. Bolalarga bag'ishlangan asarlarining bosh g'oyasi ham maktab hayoti, o'quvchilar, ularning ta'lif olishi, chiroli yozuv malakalarini egallashlari, ko'cha-ko'yda o'zlarini qanday tutishlari kabi ta'lif-tarbiyaviy masalalar deb hisoblasak, mubolag'a bo'lmaydi. Jangchi, shoир, pedagog-murabbiy Sulton Jo'ra o'zbek bolalar adabiyoti xazinasini o'zining ana shunday asarlari bilan boyitgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. –143–148b.
2. Alijon, A., Xoldorovich, S. Z., & Abbosovna, G. M. kizi, MMA.(2022). Technology of Individualization of Learning. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 291-297.
3. Asimov, A. (2019). USING PROBLEMS AND TRAINING STUDENTS TO PROBLEM. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(8), 348-352.
4. Gafurova, M. A., & Muhammadiyeva, Z. I. (2023). Scientific Research in Elementary Mathematics Classes Using Methods. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 19, 97-100.

<sup>3</sup> Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent:Ozbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – B. 143

5. Gafurova, M. A., & Xursanova, Z. M. (2023). ON MODERN APPROACHES TO MATHEMATICAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(4).
6. Gafurova, M., & Mamatova, Y. (2023). Necessity of Teaching Information Security and Cyber-Security in Primary Education. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, 4(6), 18-23.
7. Gofurova, M. A. (2020). Развитие познавательной деятельности учащихся при решении задач. *Theoretical & Applied Science*, (1), 677-681.
8. Juraev Vahid Tajimamatovich. (2023). Formation of Managerial Skills of Students in the Process of Practical Training. *Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice* 1 (2), 76-82.
9. Juraev Vahid Tajimamatovich. (2023). Pedagogical Management Ability of Socio-Cultural Activity Owners. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(6), 14–17.
10. Kuchkarova, M. A. (2020). Решение Нестандартных Задач Методом Рассуждения На Уроках Математики В Начальных Классах. *Theoretical & Applied Science*, (1), 682-685.
11. Kuchkarova, M. A. (2020). Решение Нестандартных Задач Методом Рассуждения На Уроках Математики В Начальных Классах. *Theoretical & Applied Science*, (1), 682-685.
12. Kuchkarova, M. A. THE IMPORTANCE OF LOGICAL PROBLEMS IN DEVELOPING CRITICAL THINKING OF CHILDREN. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 171.
13. Kuchkarova, M. A., & Ganiyeva, S. (2023). FEATURES OF LOGICAL THINKING. *Open Access Repository*, 4(3), 674-679.
14. Mahfuba Abbosovna Gafurova. (2023). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN ELEMENTARY SCHOOL. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(09), 89–94. Retrieved from <http://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/174>
15. Makhmuda, Q., & Maftuna, K. (2020). Creative tasks in mathematics lessons in primary classes. *Proceeding of The ICECRS*, 6, 398-400.
16. Makhmudova, O. (2023). Study of Turkic Root Words in Turkology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(8), 473-478.
17. Makhmudova, O. (2023). Typical Characteristics of Lexical Meanings. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 19, 69-76.
18. Maxmudova, O. (2022). ONA TILINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O ‘RGANISH. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 4), 97-104.
19. Maxmudova, O. T. (2022). TURKIY SO ‘ZLARDA O ‘ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 52-54.
20. Takhirjonovna, M. O. (2023). TYPES OF LEXICAL MEANING ACCORDING TO THE FORMATION. *Open Access Repository*, 4(3), 1065-1070.
21. Zakirova Sohiba Mukhtoraliyevna, & Hamdamova Muslima Egamberdiyevna. (2023).



USAGE MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AT THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE. *Academia Science Repository*, 4(5), 704–709.

22. Zakirova Sohiba Mukhtoraliyevna, & Mahmudova Bakhriddil Bakhtiyorjon kizi. (2023). CONTENT OF DIDACTIC GAMES HELD OUTSIDE THE CLASSROOM. *Academia Science Repository*, 4(05), 221–226.
23. Zakirova Sohiba Mukhtoraliyevna, & Tojialiyeva Dilnoza Rasuljon kizi. (2023). METHODOLOGICAL FEATURES OF EDUCATION OF CHILDREN OF JUNIOR SCHOOL AGE. *Academia Science Repository*, 4(5), 697–703.
24. Zakirova Sohiba Mukhtoraliyevna, & Xomidjonova Guli Karimberdi Kizi. (2023). TECHNOLOGY OF INculcating NATIONAL SPIRITUAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN MOTHER TONGUE AND READING LITERACY CLASSES. *Academia Science Repository*, 4(05), 227–234.
25. Жураев, В. (2023). УПРАВЛЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ УЧРЕЖДЕНИЕМ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(6), 276–288. <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N37>
26. Mashrabovna, N. M. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE LINGUISTIC PHENOMENON OF LACUNARITY. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 310-315.